



XX asrning 60-80-yillarida O'zbekistonda ilm-fan va ta'lif tizimi.

Aslonov Jurabek Mansurovich

Tomdi ixtisoslashtirilgan maktab-internat direktori

jurabekaslonov03@gmail.com

Annotatsiya

Ushbu maqolada XX asrning 60-80-yillarida O'zbekistonda ilm-fanga berilgan e'tibor, uning bir tomonlama rivojlanishi, "madaniy inqilob" niqobi ostida fan va ta'lif tizimiga sovet mafkurasining singdirilishi, maktablar, oliy ta'lif muasssalari bilan birgalikda kasb-hunar maktablarining faoliyati ilmiy tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: "madaniy inqilob", sovet mafkurasi, kasb-hunar maktablari, rivojlangan sotsializm.

The system of Science and education in Uzbekistan in the 60s and 80s of the XX century.

Aslonov Jurabek Mansurovich

The principal of specialized boarding school in Tomdi

Annotation

This article scientifically analyzes the attention given to science in Uzbekistan in the 60-80s of the 20th century, its one-sided development, the absorption of Soviet ideology into the science and education system under the guise of a "cultural revolution", the activities of vocational schools together with schools, higher education institutions.

Keywords: "Cultural Revolution", Soviet ideology, vocational schools, developed socialism.



Система науки и образования в Узбекистане в 60-80-е годы XX века.

Аслонов Джурабек Мансурович

Директор специализированной школы-интерната в Тамды

Аннотация

В данной статье научно анализируется внимание, уделявшееся науке в Узбекистане в 60-80-е годы 20 века, ее одностороннее развитие, проникновение советской идеологии в систему науки и образования под видом "культурной революции", деятельность профессионально-технических училищ совместно со школами, высшими учебными заведениями.

Ключевые слова: "Культурная революция", советская идеология, профессиональные училища, развитой социализм.

Sovet hokimiyati "madaniy inqilob" nomi ostida jamiyatning barcha soahalarini, ayniqsa, fan, ta'lim va madaniyatni o'ta mafkuralashtirishga alohida e'tibor qaratadi. XX asrning 20-30-yillarida sovet hokimiyati uchun o'zining siyosiy va iqtisodiy mavqeini yanada mustahkamlash davri bo'lga bo'lsa, keyingi yillar ushbu jarayonni bevosita davom ettirish hamda rivojlantirish yillari bo'ldi.

XX asrning 60-80-yillari "barqaror rivojlanish davri" deya nomlangan bo'lsa-da, ta'lim sohasida maktablarda ahvol sifat jihatidan o'zgarmay qolaverdi. Maktablarning asosiy qismi zamonaviy texnika va o'qitish vositalaridan, jahon tajribalaridan uzoqda qolaverdi. O'z o'mnida shuni ta'kidlash lozimki, bu yillar davomida maktablar, o'quvchilar va oqituvchilarning soni ko'rsatkichlari kishini hayratga soladigan darajada oshib bordi.

Masalan, O'zbekistonda 1945-1946-o'quv yilida jami 4525 ta maktab bo'lib, ularda qariyb 998 000 nafar o'quvchi o'qigan bo'lsa, 1970-1971-o'quv yilida



respublikaning umumiy ta’lim maktablari soni 7072 taga, ularning o’quvchilari soni 3 164 000 nafarga yetdi.¹

70-yillarning o‘rtalarida umumiy o‘rta ta’limga o‘tish yakunlandi. 1965—1985-o‘quv yillari orasida o‘tgan 20 yil davomida barcha turdag‘i umumta’lim maktablari 8716 tadan 9188 taga ko‘paydi, o‘quvchilar soni esa 3055,8 ming boladan 6519,6 ming bolaga ko‘paydi. 1965—1985-yillarda respublika maktablarida o‘rta ma’lumot olganlar soni 5,7 million kishidan oshdi.²

Umumta’lim maktablarining faoliyatida sotsializm g’oyasini targ’ib qilish, o‘quvchilarni ”kommunistik ruh” da tarbiyalash alohida o’rin egallardi. Xalqlarning milliy o’zligini anglashga, ularning milliy-tarixiy an’analarini o’rganish va talqin qilishga e’tibor ham berilmadi, aksincha, o‘quv-rejalardan ularga oid bo’lgan mavzular olib tashlandi.

Biroq maktablarni mutaxassis kadrlar bilan ta’minalash, bilimli va malakali o‘quvchilar bilan ta’minalash masalasi doimiy ravishda muammoligicha qolaverdi.

1985-yilda respublika maktablarida ishlayotgan o‘quvchilarning soni 268,4 ming kishini tashkil qilgan holda, bu raqam 1990-yilga kelganda 243,9 ming nafarga tushib qoldi. Buning sababi, birinchidan, aholi o‘rtasida asosiy ziyo tarqatuvchi o‘quvchiga nisbatan e’tiborsizlik bo’lsa, ikkinchidan, o‘quvchilarni ijtimoiy himoyalashda yo’l qo’ylgan jiddiy xatolar bo’ldi.³

Bundan tashqari o‘quv yilining 3-4 oyi davomida o‘quvchilar paxta va boshqa qishloq xo’jalik ishlariga faol jalb qilinardi. O‘quvchilarning ta’lim jarayonidan uzilgan holda, bunday ishlarga ommaviy ravishda safarbar qilinishi ta’lim sifatining tushib ketishiga, o‘quvchilarning savodxonlik darajasining pasayishi bilan bir qatorda, o‘quvchilik kasbiga nisbatan past nazarda qaralishiga sabab bo’ldi.

¹ O’zbekiston tarixi(1917-1991-yillar). Ikkita kitob. Ikkinci kitob (1939-1991-yillar). Mas’ul muharrirlar: R.Abdullayev, M.Rahimov, Q. Rajabov – Toshkent:O’zbekiston, 2019. – B. 225.

² Q.Usimov, M.Sodiqov. O’zbekiston tarixi. (1917-1991-yillar). Toshkent. Sharq. 2010. – B.224.

³ O’zbekiston tarixi(1917-1991-yillar). Ikkita kitob. Ikkinci kitob (1939-1991-yillar). Mas’ul muharrirlar: R.Abdullayev, M.Rahimov, Q. Rajabov – Toshkent:O’zbekiston, 2019. – B. 227.



Biroq, o'z o'rnida shuni ta'kidlash lozimki, O'zbekistonda ta'lif tizimini yaxshilashga qaratilgan tadbirlar doimo hukumat e'tiborida bo'lgan va bu borada turli qarorlar qabul qilingan. Masalan, 1966 yilda KP MK va SSSR MSning umumiy o'rta ta'lif mакtablari faoliyatini yaxshilashga bag'ishlangan qarorida ta'lif tizimini takomillashtirish va ularning moddiy-texnik bazasini mustahkamlash masalalari ham aks etgan. Uning ijrosi sifatida respublika shaharlarida zamonaviy maktab binolari qurilib, ishga tushirilgan.

1984-yildan boshlab maktablarda «Informatika va hisoblash texnikasi asoslari» kursini o'qitish, barcha maktablarni mikrokalkulyator, elektr hisoblash mashinalari, kompyuterlar bilan ta'minlash kabi vazifalar qo'yildi. Ammo respublikaning ijtimoiy-iqtisodiy ahvoli bu vazifani bajarishni ta'minlay olmadi. Maktab islohoti iqtisodiy va ijtimoiy tangliklar orqasida qolib ketdi.

Olib borilgan islohotlar doimiy va izchil ravishda tashkil etilmagan. Buning natijasida, 1988-yilda O'zbekistonda hammasi bo'lib 7840 ta maktab, 563 ta hunar-texnika bilim yurtlari mavjud edi. Biroq maktablarning moddiy bazasi juda past bo'lib, faqat 40 % maktablar yangi tipdagi binoga ega edi. Ko'p maktablarda ta'lif ikki smenada tashkil etilgan. 150 ming o'quvchiga uchinchi smenada darslar o'tilgan. 700 ga yaqin maktab avariya holatida bo'lgan.⁴

Maktab o'quvchilari uchun sarflanadigan yillik xarajatlar ham O'zbekistonda Ittifoq darajasidagidan ancha past bo'lib, bu borada respublika mamlakatda eng oxirgi o'rinni egallagan.

1988 yilga oid ma'lumotlarga ko'ra, mamlakat bo'yicha har bir maktab o'quvchisiga o'rtacha 330 rubl sarflangani holda, O'zbekistonda shu maqsadda 287 rubl ajratilgan. Ayni paytda har bir litvalik o'quvchining tahsil olishi uchun 363 rubl mablag' ajratilgan edi.⁵

⁴ Tog'ayeva A. XX asrning ikkinchi yarmida O'zbekiston shaharlari va shahar madaniyati (1950-1990-yillar). Tarix fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun dissertatsiya. Toshkent. 2020. B.156

⁵ Искандаров Н. На базе экономики возможно и необходимо совершенствовать межнациональные отношения / Правда Востока. 1989 yil 30 sentyabr.



Oliy va o'rta maxsus ta'lim tizimi haqida so'z ketganda, o'rganilayotgan davrda yangi ta'lim muassasalari ham, ulardagi fakultetlar soni ham o'sib bordi.

1959-yilda O'zbekiston Oliy va o'rta maxsus ta'lim ministrligi tizimida 31 ta oliy o'quv yurtlari mavjud bo'lib, ularda 88 000 nafar kishi ta'lim olgan bo'lsa, 1985-yilga kelib oliy o'quv yurtlari soni 42 taga, talabalar soni esa 285 500 kishini tashkil qildi. Shuningdek, respublikadagi 249 ta o'rta-maxsus bilim yurtlarida 281 700 nafar o'quvchi bilim olardi. 1961-1985-yillarda 1 mln. 135 mingga yaqin o'rta-maxsus ma'lumotli mutaxassis kadrlar tayyorlandi.⁶

Ta'lim tizimida sovet rahbariyati tomonidan bir qancha xato va kamchiliklarga yo'l qo'yildi. Ushbu xatolar esa, o'z-o'zidan ushbu sohaning rivojlanmay qolishiga, bir joyda depsinib turishiga sabab bo'ldi. Masalan, mutaxassislar tayyorlashda ekstensiv usuldan keng foydalanildi, ya'ni kadrlar sonining oshib borishiga e'tibor qaratildi. Ular olayotgan ta'limning sifatiga esa, e'tibor kundan kunga pasayib bordi. O'quv yurtlarining soni ularning moddiy-texnik bazasi o'quvchi va talabalarning o'sib borish soniga nisbatan mavjud texnika va vositalar bilan to'liq ta'minlanmadı. Bundan tashqari rahbar organlar tomonidan har bir oliy o'quv yurti uchun viloyatlar kesimida "kvota" belgilangan bo'lib, buning natijasida ayrim bilim saviyasi past bo'lgan yoshlarning ham o'quv yurtlariga kirishlariga imkon yaratildi. Ta'lim tizimida, ayniqsa oliy o'quv yurtlarida tanish-bilishchilik, poraxo'rlik kabi illatlar tomir yoyib bordi. Buning natijasida ilm olishga intiladigan ko'pgina yoshlar yetarlicha bilim va mutaxassislikka ega bo'la olishmadı.

Bundan tashqari, Oliy o'quv yurtlarida ta'lim tili sifatida asosan rus tilining belgilangiligi ota-onalarning farzandlari uchun til tanlovida rus tilining tanlanishi uchun asosiy sabab bo'lib xizmat qildi. Boshqa chet tillarini o'rganishni istaganlar uchun manba hamda sharoitlarning yetishmasligi, rus tilining xalqimiz orasida

⁶ O'zbekistonning yangi tarixi. 2-kitob. O'zbekiston sovet mustamlakachiligi davrida. T.: Sharq. 2000.– B.575.



ommalashishiga olib keldi. Aynan ushbu til jahon madaniyati yutuqlarini egallahsga yordam beradi deb hisoblandi.

Natijada, 1926-yilda 60 nafar o'zbek rus tilini o'zining ona tili deb tan olgan bo'lsa, 1959-yilda 17,5 ming, 1970-yilda 26,2 ming, 1979-yilda 43,4 ming, 1989-yilda 183,5 ming o'zbek boshqa millatlarning tilini, ayniqsa rus tilini o'z ona tili sifatida e'tirof etadi.⁷

Sovet ittifoqi ta'lif tizimining o'ziga xos xususiyatlaridan yana biri bu kechki va sirtqi maktablarning mavjudligi edi. Biroq ushbu maktablarning moddiy-texnik bazalari yaxshi ta'minlab berilmaganligi, darslarning sifat darajasi juda pastligi sababli ularni tashlab ketadigan o'quvchilar soni yildan yilga ortib bordi.

Ayni paytda, ishchi va qishloq yoshlarini bu maktablarga jalb qilishda qator kamchiliklarga ham yo'l qo'yildi. 1975 yil 1 iyun holatiga respublikada 180603 nafar yoshlar o'rta ma'lumotga ega bo'lмаган, shundan 1974-75 o'quv yilida faqat 78512 nafar yosh maktablarga jalb qilingan. Kechki va sirtqi maktab o'quvchilari kontingentini saqlab qolish bo'yicha ham yetarli ishlar olib borilmagan. Faqat 1973-74 o'quv yilida 22262 nafar o'quvchilar maktablarni tashlab ketgan bo'lib, shulardan 2154 nafari turli kurslarda o'qishni davom ettirgan, 6151 nafari Sovet Armiyasi saflariga xizmatga chaqirilgan, 7490 nafari ish yoki yashash joyini o'gartirgani yoki oilaviy sharoiti va ish bilan o'qishni qo'shib olib borish imkonini yo'qligi sababli maktabni tashlab ketgan. Maktabni tashlab ketish hollari ko'proq Toshkent, Buxoro, Samarqand va Farg'ona oblastlarida uchragan.⁸

Qayta qurish yillarida esa, ayrim mutaxassisliklar qisqartirilgan bo'lsa, yoshlarning zamonaviy kasblarni egallahshiga qaratilgan bir qancha mutaxassislik yo'naliishlari qayta tuzildi.

⁷Jo'rayev O. O'zbekistonda ijtimoiy-madaniy hayotni mafkuralashtirish jarayonlarining tarixiy tahlili (1950-1991 yillar). Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. Toshkent. 2022. B.56.

⁸Jo'rayev O. O'zbekistonda ijtimoiy-madaniy hayotni mafkuralashtirish jarayonlarining tarixiy tahlili (1950-1991 yillar). Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. Toshkent. 2022. 60-b.



Fan sohasida esa, markaziy hukumat xo'jalikning boshqa sohalari bilan bir qatorda, ilm-fanni ham faqatgina sovet hokimiyatini mustahkamlash va uni yanada chuqurroq o'rnatishga safarbar qildi. Ittifoq tarkibidagi har bir respublikaning alohida bir yo'nalishga ixtisoslashganligi, fan tarmoqlarining ham ular o'rtasida taqsimlanganligi buning yaqqol dalilidir. Masalan, O'zbekiston SSR Fanlar akademiyasining zimmasiga qishloq xo'jaligi tarmoqlarini, asosan paxtachilikdagi hosildorlikni oshirish, g'o'za parvarishi, urug'chilik, chorva mollarining zotini oshirish, suv resurslari kabi sohalarni rivojlantirish vazifalari qo'yildi. O'zbekiston olimlari fan sohasidagi 230 dan ko'proq mavzu bo'yicha ishlar olib bordilar.

80-yillarning boshlariga kelib akademiya tarkibida Qoraqalpog'iston ASSR filiali va 35 ilmiy tadqiqot muassasalari faoliyat ko'rsatardi. 38 ming ilmiy xodim, shu jumladan, 1215 fan doktori, 15664 fan nomzodi fanning turli sohalarida tadqiqot ishlari olib borardi.⁹

XX asrning 60-80-yillarida O'zbekistonda ilmiy tadqiqot muassasalarining soni ham ortib bordi. Ular 1960-yilda 64 taga, 1970-yilda 90 taga yetdi, 80-yillarning o'rtalarida esa ularning soni 100 tadan ortdi.¹⁰

Ularda fanning turli sohalari bo'yicha tadqiqotlar olib borildi, yuqori malakali, jahon tan olgan olimlar yetishib chiqdi... O'zbekiston tuproqlarining klassifikatsiyasi tuzildi, u iqlimi rayonlashtirildi, kartalashtirildi. 60-yillarda akademik S. N. Rijov sug'oriladigan tuproqlarning unumдорлик darajasi haqidagi tushunchani ishlab chiqdi va sug'oriladigan tuproqlar tip sifatida belgilandi

O'rganilayotgan yillarda O'zbekistonda Yadro fizikasi, Kimyo, O'simlik xomashyosi va paxta, Suv problemalari hamda gidrotexnika, Neft va gaz, Astronomiya, Bioximiya, Kibernetika, O'lka meditsiyasi, Seysmologiya, Elektrotexnika, Falsafa va huquq, San'atshunoslik, Arexeologiya institutlari va

⁹ Q.Usmnov, M.Sodiqov. O'zbekiston tarixi. (1917-1991-yillar). Toshkent. Sharq. 2010. – 227-b

¹⁰ O'zbekiston tarixi(1917-1991-yillar). Ikkita kitob. Ikkinci kitob (1939-1991-yillar). Mas'ul muharrirlar: R.Abdullayev, M.Rahimov, Q. Rajabov – Toshkent:O'zbekiston, 2019. – B. 251.



Qoraqalpog'iston kompleks ilmiy-tadqiqot instituti kabi ilmiy muassasalar tashkil etildi.

Biroq sovet tuzumidagi mavjud salbiy jihatlar ilm-fanning taraqqiyotiga ham o'z ta'sirini ko'rsatmasdan qolmadi. Boshqaruvning ma'muriy-buyruqbozlik tizimi, erkin va ijodiy muhit yaratishda yo'lga qo'yilgan kamchiliklar, yaratilgan yangilik va ixtirolarning o'z vaqtida amaliyotga joriy qilinmasligi yaqqol ko'zga tashlandi. Bunday cheklovlar hamda ilmiy izlanishlardagi ta'qiqlar, ayniqsa, ijtimoiy-gumanitar fanlarga nisbatan yanada kuchaytirildi. O'zbek xalqining boy tarixini, milliy qadriyat va urf-odatlarini o'rghanishga qaratilgan har qanday ilmiy ishlarga "o't mishga sajda qilish", "millatchilik" kabi nomlar tirkaldi. Ushbu soha olimlariga KPSS tarixini, "rivojlangan sotsializm" davri o'rghanish, uning ahamiyati, xalqlar uchun foydali va ahamiyatli tomonlarini ochib berish vazifalari qo'yildi.

Lekin, barcha olimlar ham partiya "ko'rsatmalari" ga amal qilavemas, vijdon amri bilan ish tutadiganlari ham yo'q emasdi. O'zbekistonda arxeologiya ilmining darg'asi Y.G'ulomov ana shunday olimlar toifasidan edi. Tarixiy yodgorlik sifatida hisobga olingan tepaliklar joylashgan joylarda paxta maydonlariga aylantirilishiga, ajdodlarimiz yaratgan madaniy va me'moriy obidalarning qarovsizlik oqibatida vayronaga aylanishiga qarshi turib, respublika siyosiy rahbariyatiga xalqimizning madaniy-ma'naviy boyligini asrab-avaylash zarurligini ochiq aytgan olim edi.¹¹

Faqatgina qayta qurish yillari ijtimoiy-gumanitar fanlar bilan shug'ullanuvchi olimlar uchun ko'pfikrlilik davri bo'lib xizmat qildi. Ayrim ta'qiqlangan mavzular bo'yicha qisman ish olib borishga ruxsat berildi. Ushbu masalalarga ba'gishlangan, ilmiy, ayniqsa, publisistik maqolalar gazeta va jurnallarda chop etilib borildi.

¹¹ O'zbekiston tarixi(1917-1991-yillar). Ikkita kitob. Ikkinci kitob (1939-1991-yillar). Mas'ul muharrirlar: R.Abdullayev, M.Rahimov, Q. Rajabov – Toshkent:O'zbekiston, 2019. – B. 252.